

**HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILIDA SIRG‘ALUVCHI UNDOSH
FONEMALANING FONOLOGIK TAVSIFI****Kamalova Gulsanam Bahodir qizi***Chirchiq davlar pedagogika universiteti**Gumanitar fanlar fakulteti**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi**1 – bosqich 24/1-guruh talabasi**Email: kamalovaqulsanam199@gmail.com**tel: +998 77 184 21 06**Ilmiy rahbar: **Shahnoza Muxtarova***

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi sirg'aluvchi undosh fonemalarning fonologik xususiyatlari, artikulyatsion va akustik belgilar asosida o‘rganilgan. Ularning fonemik tizimdagi o‘rni, boshqa fonemalar bilan qarama-qarshiliklari, pozitsion holatlardagi almashinuvi va morfonologik funksiyalari tahlil qilingan. Shuningdek, dialektal tafovutlar va fonostilistik holatlar ham yoritilgan. Maqola o‘zbek tilining zamonaviy fonologik tizimini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sirg'aluvchi undoshlar, fonema, fonologik tizim, artikulyatsiya, o‘zbek adabiy tili.

Аннотация : В данной статье исследуются фонологические особенности шипящих согласных фонем современного узбекского литературного языка на основе их артикуляционных и акустических характеристик. Анализируются их роль в фонемной системе, оппозиции с другими фонемами, позиционные чередования и морфонологические функции. Также освещаются диалектные различия и фонетико-стилистические аспекты. Статья способствует более глубокому пониманию современной фонологической системы узбекского языка.

Ключевые слова: шипящие согласные, фонема, фонологическая система, артикуляция, узбекский литературный язык.

Abstract: This article examines the phonological characteristics of sibilant consonant phonemes in modern Uzbek literary language, based on their articulatory and acoustic features. Their role in the phonemic system, oppositions with other phonemes, positional alternations, and morphophonological functions are analyzed. The article also highlights dialectal differences and phonostylistic aspects. It contributes to a deeper understanding of the contemporary phonological system of the Uzbek language.

Keywords: sibilant consonants, phoneme, phonological system, articulation, Uzbek literary language.

O'zbek tilida sirg'aluvchi undoshlar 12 ta bo'lib, ular quyidagilardan iborat: **"V" fonemasi** - lab-tish, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli undosh. Ruscha o'zlashma so'zlarda "v" jarangsiz undosh ta'sirida yoki so'z oxirida jarangsiz "f" tarzida talaffuz etiladi: avtomat - afomat, ustav- ustaf kabi.

"F" fonemasi - lab-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh. Jonli so'zlashuvda lab-tish "f"ning lab-lab, portlovchi, jarangsiz "p" tarzida talaffuz qilinish holatlari uchraydi: faqat- paqat, qafas- qapas kabi.

"S" fonemasi- til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz shovqinli undosh. Deyarli barcha pozitsiyalarda o'zining asosiy ottenkasini saqlaydi: asbob, asta, asos kabi.

"Z" fonemasi- til oldi, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli undosh. Jarangsiz undosh ta'sirida "s"ga o'tadi: iztirob-istirob, mazkur-maskur kabi. Qadimgi turkiy tilda so'z boshida qo'llanmagan.

"Sh" fonemasi- til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli undosh. "Sh" fonemasi qadimiy hisoblanadi.

"J" fonemasi - til oldi, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli undosh. So'z oxirida qo'llanish holatlari faqat ruscha - baynalminal o'zlashma so'zlarda uchraydi: janr, jeton, jemper, major, barja ekipaj, massaj, peyzaj, staj kabi.

"Y" fonemasi- til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli undosh. "Y" undoshi yumshoq tovushdir, shuning uchun u bilan yondosh qo'llangan unlilar akkomodatsiyaga uchraydi. Yo'l, yuvmoq kabi.

"L" fonemasi - til oldi, sirg'aluvchi, jarangli, sonor tovush. Fe'ning shart mayli va sifatdosh shakllarida (-sa, -gan qo'shimchalaridan oldin qo'llanganda) jonli so'zlashuv nutqida o'zak oxirida "l" tushib qolishi ham mumkin: kelsa- kesa, kelgan-kegan kabi.

"R" fonemasi- til oldi, jarangli, titroq, sonor tovush. Toshkent shevasida otning ko'plik qo'chimchasi -lar bilan qo'llangan shaklida shu qo'chimcha oxiridagi "r" ning tushib qolishi keng tarqalgan: kitoblar- kitobla, akamlar- akamla kabi. Ammo bu adabiy til me'yori sanalmaydi.

"G" fonemasi - chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli, shovqinli undosh. Qadimgi turkiy tilda "g"ning variatsiyasi bo'lgan va so'z boshida qo'llanmagan. Shevalarda so'z oxiridagi "g"ning o'rnida "v"ning qo'llanishi ham kuzatiladi: tog'-tov, to'g'ri- tuvri kabi.

"X" fonemasi- chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli undosh. "X" undoshidan so'ng qo'llangan unlilar orqa qator ottenka bilan talaffuz etiladi.

"H" fonemasi- bo'g'iz undoshi, sirg'aluvchi, jarangsiz, shovqinli tovush. Asosan, arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlarda yoki shu so'zlardan yasalgan o'zbekcha yasama so'zlarda qo'llanadi: hammol, haqiqat, humo, hunar, huquq, hurriyat, jumhuriyat kabi.

Jarangli jarangsizligiga ko'ra jufti bo'lgan sirg'aluvchi undoshlar o'zaro oppozitsiya hosil qiladi: z-s, v-f, g'-x.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jamolxonov.H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent - 2013. (110-115 betlar)
2. Qilichev.Q, Madliyev.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent - 1992.
3. Abdurahmanov.G', Rustamov.A. Qadimgi turkiy til. Toshkent - 1982.

